

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y. 9-son, 225-modda) va «Kadralar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, 1997 y. 11-12son, 295-modda) qonunlariga hamda «Oliy ta'lim to'g'risida»gi Nizom va «Oliy ta'lim muassasining kafedralari to'g'risida» namunaviy Nizomga muvofiq «Ichki yuqumsiz kasalliklar va akusherlik» kafedrasini faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom «Ichki yuqumsiz kasalliklar va akusherlik» kafedrasini uchun asosiy me'yoriy hujjat hisoblanadi.

Kafedra Samarqand qishloq xo'jalik instituti "Veterinariya profilaktikasi va davolash" fakultetining tarkibiy bo'linmasini hisoblanadi.

Kafedrada "Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari", "Klinik diagnostika", "Veterinariya akusherligi", "Qishloq xo'jalik hayvonlar reproduksiyasi", "Radiobiologiya", "Veterinariya patologiyasining nazariy va ilmiy asoslari", "Ichki yuqumsiz kasalliklar tashxisining ilmiy asoslari", "Yuqumsiz kasalliklarni davolash va oldini olishning ilmiy asoslari", "Yosh hayvonlar va parrandalarning yuqumsiz kasalliklari", "Hayvonlar ko'payish biotexnikasining nazariy va ilmiy asoslari", "Akusherlik patologiyasining ilmiy asoslari", "Veterinariya ginekologiyasi va andrologiyasining ilmiy asoslari" fanlari bo'yicha o'quv, uslubiy, ilmiy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot ishlari, shuningdek, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, malaka oshirish hamda tashkiliy, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar amalga oshiriladi.

2. Kafedra tarkibiga kafedra mudiri, veterinariya fanlari doktori, dotsent B.M.Eshburiev, professor Q.N.Norboev, professor B.Bakirov, fan nomzodlari dotsentlar M.B.Safarov, N.B.Ruzikulov, fan nomzodi, katta o'qituvchi B.X.Ibragimov, fan nomzodi assistent B.M.Nurmuxamedov, assistentlar O.R.Boboev, M.A.Sulaymonov, U.A.Raxmonov, M.H.Xamidov, V.B.Abdumajidov, B.S.Alimov, H.N. Bektanova, B.B.Tursunaliyev, B.Sidiqov, SH.A.Botirova, B.Xaitov, katta laborant N.E.Xudoynazarova, laborantlar G.Haydarova, F.Xamraqulova kiradi.

3. Kafedraning professor-o'qituvchilari "Ta'lim muassasalariga pedagogxodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risida" gi Nizomgamuvofiqishga qabul qilinadi.

4. Kafedra o'quv-tarbiyaviy va ilmiy jarayonni ta'minlovchi "Hayvonlarda modda almashinuvi buzilishlari va bepustlikning oldini olish" ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi, axborot-texnologiyali ma'ruzaxonalar, amaliy mashg'ulot xonalari, rengen kabinet, fizioterapiya va radiobiologiya kabineti va maneja ega.

5. Kafedra kadrlar buyurtmachilari bo'lgan korxonalar yoki tashkilotlar xududida filiallar tashkil etish va ularning moddiy-texnik bazasidan foydalanishi mumkin.

Kafedra filiali faoliyati tegishli Nizom asosida tashkil etiladi.

II. Kafedrani tashkil etish va boshqarish.

6. Kafedrada jami 1 nafar fan doktori professor, 5 nafar fannomzodlari dotsentlar va katta o'qituvchilar, 3 nafar fan nomzodlari, assistentlar va 7 nafar ilmiy darajasiz assistentlar faoliyat ko'rsatadi.

7. Kafedra fakultet dekaniga va institut rektori (o'quv ishlariprorektori)ga bo'ysunadi.

8. Kafedraning tuzilishi va uning shtatlari oliy ta'lim muassasasirektori tomonidan tasdiqlanadi.

9. Kafedrani odatda, fan doktori, fan nomzodi, ilmiy darajasiga, shuningdek, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan hamda belgilangan tartibda tanlovdan o'tgan kafedra mudiri boshqaradi va unga kafedra faoliyati uchun shaxsiy mas'uliyat yuklatiladi.

III. Kafedra mudirining vazifalari

10. Kafedra mudirining shaxsiy rejasi oliy ta'lim muassasasining rektori yoki o'quv ishlari bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlanadi.

11. Kafedra mudiri:

- oliy ta'lim muassasasi miqyosida kafedra faoliyatiga taalluqli masalalar muhokamasi va hal etilishida ishtirok etadi;
- kafedra ish rejasi, professor-o'qituvchi va xodimlarning shaxsiy rejalarini hamda kafedra faoliyati doirasidagi boshqa hujjatlarni tasdiqlaydi;
- kafedra pedagog xodimlariga o'quv yuklamalarni taqsimlaydi hamda ularning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini nazorat qiladi;
- kafedraga ishga olish, ishdan bo'shatish va xodimlarni yangi vazifalargatayinlash, ularni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish, shuningdek, intizomiychora ko'rish to'g'risida oliy ta'lim muassasasi rahbariyatiga belgilangan tartibda takliflar kiritadi; oliy ta'lim muassasasining tegishli xizmat bo'linmalaridan o'quv- tarbiyaviy va ilmiy-tadqiqot jarayonini talab darajasida o'tkazish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni ta'minlashni talab etadi;

IV. Kafedra faoliyatini tashkil etish.

12. Kafedra faoliyati o'quv, ilmiy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy hamda tashkiliy-uslubiy ishlarni qamrab olgan istiqbollivajoriy (yillik) rejalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Ushbu rejalar va kafedra faoliyatiga tegishli boshqa vazifalarning bajarilishi kafedra mudiri raisligida o'tkaziladigan majlislarda muhokama etiladi. Kafedra majlislariga boshqa kafedralar va oliy ta'lim muassasalaridan xodimlar taklif etilishi mumkin.

13. Kafedraning asosiy faoliyat yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

-rivojlangan demokratik davlatlar darajasidagi yuksak ma'naviy vaaxloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash;

- kafedra yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalarini va dasturlarini rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim dasturlari bilan qiyosiy taxlilini muntazam ravishda olib borish va takomillashtirish;

• kafedra fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqqa taqdim etish, shuningdek, turdosh kafedralar tomonidan tayyorlangan o'quv dasturlarga taqriz va xulosalar tayyorlash;

• darslik, o'quv, uslubiy va ko'rgazmali qo'llanmalar tayyorlash, qayta nashr etiladigan darslik, o'quv qo'llanma va o'quv-uslubiy adabiyotlar, shu jumladanxorijiy olimlar bilan xammualliflikda yaratilgan adabiyotlarga xulosalartuzish;

• o'quv shakllari (ishlab chikarishdan ajralgan va ajralmagan xollarda) bo'yicha oliy ta'limning davlat ta'lim standartlariga muvofiq tuzilgan o'quv rejalaridagi fanlar bo'yicha belgilangan mashg'ulot turlarini yuksak nazariy, ilmiy-uslubiy va kasbiy darajada o'tkazish, ta'lim sifatini ta'minlash;

- talabalarning malakaviy amaliyoti, kurs loyixalari (ishlar), bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalariga, shuningdek, mustaqil ishlari va ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;
 - talabalar bilimining reyting nazoratini joriy etish, talabalarning auditoriyadan tashqari ishlarini tashkil etish bo'yicha tadbirlar o'tkazish;
 - iqtidorli talabalarni tanlash va ularni tarbiyalash, olimpiada vatanlovlarda, shu jumlanadi «Iste'dod» jamg'armasi tanlovida ishtirok etishga tayyorlash, talabalarning mustaqil ishlash shakl va uslublarini takomillashtirish bo'yicha choralar ko'rish;
 - talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatini tizimli asosda tashkil etish, iqtidorli talabalarni tadqiqotlarga jalb etish, ilmiy-tadqiqot ishlarini individual va jamoa bo'lib bajarishga o'rgatish, ularning ilmiy-ijodiy faoliyatini ruyobga chiqarish uchun zarur tashkiliy, uslubiy va moddiy-texnikaviy shart-sharoitlar yaratish;
 - tasdiqlangan rejaga muvofiq ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, tugallangan ilmiy-tadqiqot ishlarini muhokama etish, nashr etishga tavsiya berish va ularning natijalarini ishlab chikarishga joriy etish, ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;
- kafedra o'qituvchilarining shaxsiy ish rejalaridagi o'quv, ilmiy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy va tashkiliy-uslubiy ishlarini ko'rib chiqish tajribali o'qituvchilar faoliyatini o'rganish, umumlashtirish va ilg'or tajribalarni ommalashtirishga qaratilgan ishlarni tashkil etish;
- zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishni boshlagan yosh o'qituvchilarga pedagogik malaka va ko'nikmalarni egallashda yordam berish, axborot bazasini yaratish, o'quv